



## “SUDLARDA ISHLARNI KO’RIB CHIQISHDA PROKUROR VAKOLATLARINI BELGILOVCHI UMUMIY QOIDALA”

Toshkent Viloyati Brkobod Tumanlararo Sudining  
sudiyasi Alimjanov Rustam Irisdavlatovich

**Annotasiya:** Ushbu maqolada huquq tartibot organlarining o’zlari qonunlarga riosa etishlari, sudlarda jinoyat ishlarini ko’rib chiqishda prokuror ishtirokining asosiy maqsadi, haqiqatni anglash, shaxslarni javobgarlikka tortish va ayibsizlarni oqlash, sud ishlarini ko’rib chiqishda prokuror vakolatini umumiy qoidalari haqida qisqacha so’z yuritiladi.

**Kaslit so’zlar:** instansiya, prokuror, prokuror, jinoyat, jazo, javobgarlik, huquq, erkinliklarini, aql-zakovat, qadr-qimmati, Faktik zamin, Maxsus zamin, O’zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi.

**Annotation:** In this article, law enforcement agencies themselves comply with the laws, the main purpose of the prosecutor’s participation in criminal cases in courts, understanding the truth, holding people accountable and acquitting the innocent, a brief question about the general rules of the prosecutor’s authority in court cases is maintained.

**Key words:** instance, prosecutor, prosecutor, crime, punishment, responsibility, rights, freedoms, intelligence, dignity, Factual ground, Special ground, Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan.

Birinchi instansiya sudlarida jinoyat ishlarini ko’rilishida prokuror ishtirokining asosiy maqsadi — ish bo'yicha haqiqatni aniqlash, sodir etilgan jinoyat uchun jazoni muqarrarligini ta'minlash, aybsiz shaxslarni javobgarlikdan ozod qilish va adolat o'matishdir. Buning uchun, o'z navbatida, « prokuror organlarining o'zlari qonunlarga so'zsiz riosa qilishlari lozim». Birinchi instansiya sudlarida jinoyat ishlarini ko’rilishida ishtirok etayotgan prokurorning butun faoliyati qonun va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo'tishi kerak.

Sudlarda jinoyat ishlarini ko’rilishida prokuror ishtirokini ta’minalash, O’zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g’risida»gi Qonuni (yangi tahriri), O’zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi hamda O’zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 23-apreldagi 12-buyrug’i bilan tasdiqlangan «Sudlarda jinoyat ishlarini ko’rilishida prokuror vakolatini ta’minalash boshqarmasi to‘g’risida»gi Nizom va 2004-yil 11-maydag‘i 21-buyrug’i bilan amalga oshiriladi. Ushbu normativ hujjatlar mazmunida sudlarda ishtirok etayotgan prokurorlarning fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish kafolati sifatida ishtirok etishi hamda har qanday holda qonun ustuvorligini, qonun oldida barchaning barobarligi, qonun hukmronligini ta’minalashga xizmat qilish tamoyillari mustahkamlangandir.

Sudda ishtirok etadigan prokurordan yuqori kasbiy malakadan tashqari, zukko huquqiy ongning mavjudligi, qonunni hurmat qilish, har qanday qonun buzilish hollariga nisbatan murosasizlik, o’z ishonchiga nisbatan qat’iyatlik va buning uchun kurashish



salohiyati, har qanday g'ayriqonuniy tashqi ta'sirlarga berilmaslik va ularga qarshi kurasha olish, o'z-o'zining harakatlariga tanqidiy qaray olish, haqiqatni aniqlash uchun butun aql-zakovatini ishga sola olish, sudlanuvchiga nisbatan bir tomonlama munosabatda bo'lmaslik, oldindan sudlanuvchining aybdorligiga ishonib qolmaslik, insonparvarlik, insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, me'yor hissiyoti, kamtarlik, o'zini boshqalardan ustun qo'yishdan xoli bo'lish kabি fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

Sudlarda jinoyat ishlarining ko'rili shida davlat ayblovi subyektlari doirasi Bosh prokurorning buyrug'i bilan belgilab berilgan. Aniq bir jinoyat ishi bo'yicha davlat ayblovchisi sifatida ma'lum bir prokuromi ishtirok etishiga yo'I qo'yish mumkinligi va imkoniyati bunga faktik va yuridik zamin yaratilgan bo'lsagina amalga oshirilishi mumkin.

Faktik zamin — avvalambor, prokurorning tergov va sud muhokamasidagi shart-sharoitlarni, shunga tegisfii qonunchilik talablarini, amaliyotni hamda shu boradagi o'ziga xos xususiyatlami yaxshi bilishi va o'zlashtirganligi, yuqori kasbiy malakani egallaganligida ifodalanadi. Faqat shundagina prokuror muhokama qilinayotgan ish materiallarini chuqr o'rganishi va sudga haqiqatni aniqlashida ko'maklashishi mumkin. Prokuromi sudda muzokara qilishining faktik imkoniyatini muhim unsuri, bu — sudlanuvchining aybdorligi xususida ichki ishonchning mavjudligidir. Busiz prokuror davlat ayblovchisi sifatida talab darajasida o'ziga yuklatilgan protsessual majburiyatni bajara olmaydi.

Prokurorni sudda ishtirokining yuridik zaminini o'z o'rnida umumiyligini va maxsusga bo'lish mumkin. Umumiy zamini — prokuror vakolatini amalga oshiruvchi shaxslarni tayinlash to'g'risidagi huquqiy normalarda (O'zbekiston Respublikasining «Prokuraturasi to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlami tanlash va tayinlash to'g'risida»gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining kadrlarni tanlash va tayinlash to'g'risidagi buyrug'i, «Sudlar to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasining JPK) o'z aksini topadi. Ushbu huquqiy normalarga rioya qilish (Oliy yuridik ma'lumotning mavjudligi, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishligi, jismonan sog'lomligi) haqiqatda prokurorlarni sudlarda jinoyat ishlarini ko'rili shida davlat ayblovchisi sifatida ishtirok etishiga imkoniyat yaratadi.

Maxsus zamini — ma'lum bir prokurorning aniq bir jinoyat ishi bo'yicha davlat ayblovchisi sifatida ishtirok etishiga monelikqiladigan holatlar — to'sqinlikni mavjud emasligida ifodalanadi. To'sqinliklar (monelik qiladigan holatlar) turlicha bo'lishi mumkin, masalan, bevosita yoki bilvosita ish natijasidan prokurorning shaxsiy manfaatdorligi ishni obyektiv ko'rishga xalaqit beradi. Bu to'sqinliklarni bartaraf qilish uchun esa qonunchilikda rad etish (otvod berish) instituti amal qiladi.

Shu maqsadda prokurorlar qonun hujjalarda belgilangan vakolatlaridan to'la va samarali foydalanib, shaxsnинг sha'ni va qadrqimmatini hurmat qilish, taraflarning tortishuvi, aybsizlik prezumpsiyasi, sudyalarining mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi hamda jinoyat protsessining boshqa prinsiplariga qat'iy amal qilgan holda fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydilar.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksida nazarda tutilgan quyidagi ishlar sudlarda ko'rili shida prokuror ishtiroki majburiyidir:



- tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash;
- yarashuv to'g'risidagi ishlar;
- hukmni ijro etish bilan bog'liq masalalarning muhokamasida;
- sud prokurorning ishtirokini zarur deb topgan hollarda;
- tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash;
- yarashuv to'g'risidagi ishlar;
- hukmni ijro etish bilan bog'liq masalalarning muhokamasida;
- sud prokurorning ishtirokini zarur deb topgan hollarda;

Sud muhokamasiga prokurorlar puxta tayyorgarlik ko'rib, surishtiruv va dastlabki tergovning har tomonlama to'liq va xolisona olib borilganligini o'rganishlari lozim. Sud majlisiga jarayonida alohida e'tibor sudlanuvchining himoya huquqi hamda qonunda belgilangan boshqa huquqlarining ta'minlanishi qaratilib, sud muhokamasi qoidalari va munozara madaniyatiga amal qilib, dalil-isbotlarni tekshirish va ularga baho berishda faol qatnashgan holda ish bo'yicha qonun va ish hujjatlariga asoslangan fikr berib, qonuniy va adolatli qaror qabul qilinishi ta'minlanishi shart.

Prokurorning muzokarasida sudlanuvchining aybliligi, uning jinoiy harakatlarini tavsiflash, jazo turini va me'yorini tayinlash bilan birgalikda, jinoyat natijasida yetkazilgan zaramning o'rnnini qoplash, qo'shimcha jazo tayinlash, shuningdek, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishga imkon bergen shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida xususiy ajrim chiqarish to'g'risida fikrlar berishlari kerak.

Prokuror ishtirokisiz ko'rilgan ishlar bo'yicha sud qarorlarining qonuniyligi appellatsiya muddatida o'rganib borilishi, protest keltirishga asos bo'limgan taqdirda, xulosa tuzilib, prokuror tomonidan tasdiqlanishi lozim. Appellatsiya protesti keltirilmagan noqonuniy sud qarorlariga qonunda belgilangan tartibda viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan kassatsiya protestlari keltirilishi kerak.

Appellatsiya, kassatsiya instansiyaning noqonuniy ajrimlariga nazorat tartibida protest keltirilishi, bunday protest keltirish prokurorning vakolatiga kirmaydigan hollarda esa yuqori turuvchi prokurorga asoslantirilgan taqdimnomalar kiritilishi ta'minlanishi zarur. Sudlaming nazorat bosqichlarida ishlar ko'rlishida viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar shaxsan ishtirok etishi talab qilinadi.

Appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyanlarda qatnashadigan prokuror ishlarni to'liq o'rganib, protest va shikoyat vajlarining asosliligi, sud qarorlarining qonuniyligi va adolatliligi yuzasidan asoslantirilgan flkr berishi lozim. Sud qarorlari yuzasidan fuqarolardan kelib tushgan ariza va shikoyatlarning qonunda belgilangan muddatda, ishlar to'liq o'rganilgan holda qonuniy hal qilinishi ta'minlanishi kerak. Jinoyat ishlarini o'rganish natijasiga ko'ra, sud qarori asosli deb topilgan taqdirda, xulosa tuzilib, protest keltirish vakolatiga ega bo'lgan prokurorlar yoki ularning o'rincbosarlari tomonidan tasdiqlanishi, ariza muallifiga esa asoslantirilgan javob berilishi lozim.

Prokuror sudlarda jinoyat ishlari ko'rileyotganda davlat ayblovini quwatlaydi. Prokuror sudda dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, qonunning qo'llanishi xususida o'z fikrini bildiradi. Ishlar sudlarda ko'rileyotganda ishtirok etayotgan prokurorning vakolatlari protsessual qonunlar bilan belgilanadi. Prokuror sud protsessining boshqa



ishtirokchilari bilan teng huquqlardan foydalanib, sudyalarning mustaqilligi hamda protsessual qonun hujjatlari normalariga qat'iy rioya etish prinsipiga amal qilishi shart».

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.M. Madaliyev. Jinoyat ishlarini birinchi instansiya sudlarida ko‘rilishida prokuror ishtiroki. T., TDYI, 2005.
2. O.M. Madaliyev. Sud tergovi jarayonida prokuorning protsessual mavqeyi va ayblovni isbotlash majburiyati. O ‘quv-uslubiy qo’llanma. T., TDYI, 2006.
3. Ф.М. Решетников. Правовые системы стран мира. Справочник. М., 1993.
4. В.М. Савицкий. Государственное обвинение в суде. М., «Наука», 1971.
4. В.М. Савицкий. Защитить государственное обвинение в суде. М. «Юридическая литература», 1978.
5. Б.Х. П улат ов. Теоретические основы совершенствования законодательного регулирования и практики участия прокурора при рассмотрении уголовных дел в судах (монография). Т., «Fan», 2002.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Internet WWW. Islam ,uz@ Islamik-World.Net
2. Dr. V.Zuhayliy. Al-fiad al-islamiy va adillatuhu, 8/ 6263
3. Ibn Xaldun. Al-Muqaddima.
4. Ibn Taymiya. Al-Xisbatu fil islam. Qohira, 1935.